


O.SH. MAMANAZAROV

LOYIHA BOSHQARUVI



UO'K: 71(075.8)
KBK: 85.11ya73

M 23

M 23 Mamanazarov Sh.O.

Loyiha boshqaruvi. [Matn] / Mamanazarov Sh.O. – T.:
«Ijod-Press» nashriyoti, 2019-yil. – 208 bet.

Qo'llanmada loyihani boshqarish metodologiyasining asosiy qoidalari keltirilgan. Kontseptsiya, hayotiy sikl, asosiy ishtirokchilarning roli, loyihani boshqarishning asosiy funksiyalari va jarayonlari, loyihalarni moliyalashtirish, loyiha xavflarining samaradorligini baholash kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Loyihalarni boshqarish sintetik intizom bo'lib, u ham ixtisoslashgan, ham kasbiy bilimlarni birlashtiradi. Maxsus bilimlar loyihalarni tegishli bo'lgan faoliyat sohasining xususiyatlarini aks ettiradi (innovatsion, ta'lim, qurilish, atrof-muhit, ilmiy tadqiqotlar, qayta tashkil etish va boshqalar). Biroq, loyihalarni boshqarish turti loyihalar uchun muvaffaqiyatli ishlatilgan usul va vositalar tufayli barcha faoliyat sohalaridagi loyihalarga xos bo'lgan umumiy bilimlarni o'rganish natijasida mustaqil fanga aylandi.

O'quv qo'llanma arxitektura va qurilish ta'lim yo'nalishlari bakalavr talabalariga hamda boshqa barcha mutaxassisliklar talabalariga mo'ljallangan bo'lib, amaliyotda ham foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir:

i.f.n., dotsent D.R.Xairova

Taqrizchilar:

R.X.Karlibayeva – TDIU, “Korporativ boshqaruv” kafedrası
professori, i.f.d.

U.A.Shodmonova – TAQI, “Informatika va information
texnologiyalar” kafedrası dotsenti, i.f.n.

UO'K: 71(075.8)
KBK: 85.11ya73

ISBN 978-9943-6223-1-9

© «Ijod-Press» nashriyoti, 2019
© O.Sh. Mamanazarov

KIRISH

Hozirgi kunda “Loyiha” va “Loyihani boshqarish” so'zlari rahbarlar tomonidan turli xil sohalar va boshqaruv darajalarida ishlatiladigan terminologiyada mustahkam o'rnatilgan. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi iqtisodiy va boshqaruv faoliyatida ixtisoslik darajasini oshirishni, rejalashtirishning maxsus usullarini ishlab chiqish, ijrochilar va ish muddatlarining monitoringini o'zaro munosabatlarini tashkil qilishni talab qiladi.

Menjement obyektiga yangi yondashuvning asosi barcha rivojlangan mamlakatlarda tan olingan loyihalarni boshqarish kontseptsiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ta'kidlab o'tganlaridek: “Ayni paytda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar hisobiga 23 milliard dollarlik 456 loyiha amalga oshirilmogda. 2019-yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trln. so'm investitsiyalardan foydalanish rejalashtirilgan, bu 2018-yilga nisbatan 16 foizga ko'pdir. Joriy yil bilan taqqoslaganda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi deyarli 1,5 martaga oshib, 4,2 milliard dollarni tashkil etadi. Shu munosabat bilan 142 zamonaviy korxonani ishga tushirish mo'ljallanmogda”.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'tirof etilganligi alohida ta'kidlanishi lozim.

Shunday qilib, birinchi marta “FitchRatings” va “Standard & Poor” nufuzli reyting agentliklari tomonidan mamlakatimizga suveren kreditning xalqaro reytingi berildi. Ushbu reyting bahosi “Barqaror” prognozini berdi, bu kelgusi 12–18 oy ichida ko'rsatkichlar pasayishi ehtimoli kamligini bildiradi. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarda oliy o'quv yurtlarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashni kengaytirishni eng muhim masala sifatida ko'tarib chiqildi.

Bugungi kunda kompaniyalar zamonaviy loyiha boshqariviga ixtisoslashmogda. Qadim zamonlarda amaliy faoliyat sifatida paydo